



Humansning Sodiqlik Dasturi doirasida o'tkaziladigan Aksiya ta'rifi

Quyida qayd etilgan Aksiya Ta'rifi (keyinchalik – Ta'rif) Humansning Sodiqlik Dasturining ajralmas qismi bo'lib, nomuayyan shaxslar doirasiga “Humans” MChJ ning taklifi hisoblanadi.

“Hisobni to'ldirganlik uchun bonus” Aksiyasining Ta'rifi

1. Aksiya to'g'risida ma'lumot

- 1.1. Ta'rif matnida bosh harf bilan qo'llanilgan so'zlar terminlar (atamalar) hisoblanadi. Atamalarning ma'nosi mazkur Ta'rifda bayon qilinmagan bo'lgan taqdirda Humans aloqa xizmatlari ko'rsatish Shartlari va www.humans.uz Saytida joylashtirilgan Humans Sodiqlik Dasturi Qoidalarida keltirilgan.
- 1.2. “Hisobni to'ldirganlik uchun Bonus” Aksiyasi Ishtirokchilariga qo'shimcha talablar – aksiyada Humans aloqa xizmatlarini ko'rsatish Shartlarini qabul qilish orqali Humans bilan aloqa Xizmatlarini ko'rsatish uchun Shartnoma tuzgan Ishtirokchilar qatnashishi mumkin. Aksiya doirasida Hisob raqami to'ldirilgan Ishtirokchigagina Bonus beriladi (Ishtirokchi – Oluvchiga).
- 1.3. Aksiya o'tkazilish davri: 2021- yilning 17-avgustidan dan 2021-yilning 30-sentabrigacha.

2. Aksiya Shartlari

- 2.1. Ishtirokchi – oluvchi (bu atama 1.2.-bandida ta'riflanganidek) Saytda Shaxsiy hisob har safar (Uzcard, HUMO) milliy to'lov tizimlari kartalari bilan yoki Humans mobil ilovasi orqali to'ldirganida, shu jumladan, avtoto'lov, shuningdek Humans xizmatlari uchun terminallar orqali naqd pul to'lovlari (Upay, Payload) amalga oshirganida quyida belgilangan miqdorda Bonusga ega bo'ladi.
- 2.2. Aksiya doirasidagi beriladigan Bonus to'ldirish summasidan 1% (bir foiz)ni tashkil qiladi.
- 2.3. Bonus berilishi Shaxsiy hisob to'ldirilgan kunning ertasiga sutkasiga bir marta amalga oshiriladi.
- 2.4. Ishtirokchi Aksiya doirasida olishi mumkin bo'lgan Bonuslar soni cheklanmagan.
- 2.5. Humansning bir hisobidan ikkinchi bir hisobiga pul o'tkazmasi orqali to'ldirish, xususan, Humansning VISA bank kartasi orqali Shaxsiy hisobni to'ldirilganligi uchun Bonus qo'shib berilmaydi.